

O'SMIRLIK DAVRI VA IJTIMOYIY IDENTIKLIK

Abdusattorova Marhabo Abdumajit qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlik davrida ijtimoiy identiklikning shakllanish masalalari zamonaviy psixologik yondashuvlar prizmasida tadqiq etilgan. Maqolada o'zbek va xorijiy psixologlarning nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, shaxs kamolotida ijtimoiy muhit, mikroguruhlar va madaniy determinantlarning o'rne yoritilgan. Xususan, globallashuv sharoitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoniga raqamli texnologiyalar va milliy qadriyatlar uyg'unligining ta'siri xususida yangicha qarashlar ilgari surilgan. Bu maqolada keltirilib o'tilgan ma'lumotlar o'smirlar psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ijtimoiy identiklik, shaxs rivojlanishi, ijtimoiylashuv, madaniy determinantlar, o'zlikni anglash.

Аннотация: В данной статье вопросы формирования социальной идентичности в подростковом возрасте исследуются сквозь призму современных психологических подходов. В статье проводится сравнительный анализ теоретических взглядов узбекских и зарубежных психологов, освещается роль социальной среды, микрогрупп и культурных детерминант в развитии личности. В частности, выдвигаются новые взгляды на влияние гармонии цифровых технологий и национальных ценностей на процесс самопознания подростков в условиях глобализации. Информация, представленная в данной статье, служит важным фундаментом в разработке практических рекомендаций для специалистов и педагогов, занимающихся психологией подростков.

Ключевые слова: подростковый период, социальная идентичность, развитие личности, социализация, культурные детерминанты, самосознание.

Abstract: In this article, the issues of social identity formation during adolescence are researched through the prism of modern psychological approaches. The article provides a comparative analysis of the theoretical views of Uzbek and foreign psychologists, highlighting the role of the social environment, microgroups, and cultural determinants in personality development. In particular, new perspectives are put forward regarding the influence of the harmony between digital technologies and national values on the self-awareness process of adolescents in the conditions of globalization. The information presented in this article serves as an important foundation for developing practical recommendations for specialists and educators dealing with adolescent psychology.

Keywords: adolescence, social identity, personality development, socialization, cultural determinants, self-awareness.

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida yosh avlod, xususan, o'smirlarning ruhiy holati, shaxs sifatida kamol topishi hamda jamiyatga moslashuvi

psixologiya fanining eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'smirlik davri inson hayotidagi muhim rivojlanish bosqichi bo'lib, aynan ushbu davrda shaxsiy va ijtimoiy identiklikning shakllanish jarayoni faollashadi. Shu sababli o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish amaliy va nazariy psixologiya uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

O'smirlik davrida shaxs o'z "Men"ini anglashga, jamiyatdagi o'rnini belgilashga va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga intiladi. Shaxsiy identiklik insonning o'zini yaxlit va barqaror shaxs sifatida idrok etishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon ayniqsa o'smirlik va ilk yetuklik davrida kuchli psixologik faollik bilan kechadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda identiklik muammosi shaxs rivojlanishining markaziy tushunchalaridan biri sifatida qaraladi [1].

Ilmiy manbalarga ko'ra, o'smirlik davri taxminan 10–11 yoshdan 14–15 yoshgacha bo'lgan yosh oralig'ini qamrab oladi [3]. Hozirgi davr o'smirlari avvalgi avlod vakillariga nisbatan jismoniy va aqliy rivojlanish sur'atlarining tezlashuvi bilan ajralib turadi. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiy faollik va mustaqil fikrlash jarayonlari erta namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimi nuqtai nazaridan qaralganda, o'smirlik davriga o'tish asosan 5-sinfdan boshlanadi. Bu yosh bosqichi "bola ham emas, katta ham emas" holati bilan xarakterlanib, shaxs rivojida muhim psixologik qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

O'smirlik — bolalikdan kattalik sari o'tish davri bo'lib, u fiziologik va psixologik jihatdan keskin o'zgarishlar bilan kechadi. Mazkur bosqichda jismoniy o'sish tezlashadi, psixik jarayonlar faollashadi, qiziqishlar doirasi kengayadi, shaxsiy qarashlar va xarakter shakllana boshlaydi. O'smirlar yangilikka intilish, mustaqillikni his etish va o'z fikrini himoya qilishga moyil bo'ladilar. Shu bilan birga, ichki ziddiyatlar, emotsional beqarorlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ham kuchayadi.

Balog'atga yetish jarayoni bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar o'smir psixikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bo'y o'sishi notekis kechib, qizlarda o'rtacha 5–7 sm, o'g'il bolalarda esa 5–10 sm atrofida bo'lishi kuzatiladi. Bu jarayon asosan suyak tizimining rivojlanishi va umurtqa pog'onasining o'sishi bilan izohlanadi [2]. Jismoniy o'zgarishlar fonida o'smirning o'z tanasiga, tashqi ko'rinishiga va ijtimoiy bahoga bo'lgan munosabati ham o'zgaradi.

O'smirlik davri psixologiyasini tushuntirishda turli nazariy yondashuvlar mavjud. Jumladan, L.S. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan madaniy-tarixiy konsepsiyada o'smirlik davri shaxs rivojlanishidagi murakkab va ziddiyatli bosqich sifatida talqin qilinadi [5]. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'smirlikda ijtimoiy tajriba va madaniy omillar shaxs psixikasining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuningdek, E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasida o'smirlik davri "identiklikka erishish yoki rol chalkashuvi" bosqichi sifatida izohlanadi [4]. Olimning fikricha, bu davrda shaxs o'zining kimligi, jamiyatdagi o'rni va kelajakdagi hayot yo'lini aniqlashga harakat qiladi. Identiklik muvaffaqiyatli shakllanmasa, rol noaniqligi va ichki ziddiyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Erikson g'oyalarini rivojlantirgan J. Marcia identiklik rivojlanishining to'rt holatini ajratib ko'rsatadi:

Yakunlangan identiklik – shaxs izlanishlar natijasida aniq hayotiy pozitsiyaga ega bo'ladi;

Moratoriy holati – faol izlanish mavjud, biroq yakuniy qaror qabul qilinmagan;

Qabul qilingan identiklik – shaxs mustaqil izlanishsiz, boshqalarning qarashlarini qabul qiladi;

Diffuz identiklik – izlanish ham, aniq qaror ham mavjud emas.

Psixologiyada identiklik tushunchasi (lotincha identitas – “o'zlik”, “bir xillik”) shaxsning o'zini uzluksiz, barqaror va yaxlit individ sifatida anglashini ifodalaydi. Identiklik shaxsning ijtimoiy guruhlariga mansubligi, hayotiy qadriyatlari va kelajak rejalari bilan chambarchas bog'liq.

Identiklik bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: shaxsiy identiklik – “men kimman?” degan savolga javob topish jarayoni; ijtimoiy identiklik – o'zini muayyan ijtimoiy guruh vakili sifatida anglash; madaniy identiklik esa an'ana, qadriyat va madaniy meros bilan bog'liq o'zlik hissini ifodalaydi. Aynan o'smirlik davrida ushbu identiklik shakllari faol rivojlanib, o'smirlarning qiziqishlarini aniqlash, kelajak kasbini tanlash va jamiyatda o'z o'rnini topish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi

Psixologik nuqtai nazardan o'smirlik davri mustaqillikka intilish, o'z fikrini himoya qilish, tanqidiy tafakkurning shakllanishi bilan xarakterlanadi. O'smirlar o'zlarini kattalar bilan teng ko'rishga harakat qiladilar, biroq emotsional va ijtimoiy yetuklik hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Natijada, oila a'zolari, tengdoshlar va o'qituvchilar bilan ziddiyatlar tez-tez yuzaga keladi.

Mazkur davrda o'smir shaxsining “Men-konsepsiyasi” faol rivojlanadi. O'smir o'zining tashqi ko'rinishi, qobiliyatlari va ijtimoiy maqomi haqida chuqurroq o'ylay boshlaydi. O'z-o'zini baholash ko'pincha atrofdagilarning munosabati va ijtimoiy taqqoslashlar asosida shakllanadi. Shu bois, ijobiy ijtimoiy qo'llab-quvvatlash o'smir ruhiy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy identiklik tushunchasi va uning shakllanish mexanizmlari shundaki, ijtimoiy identiklik shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida anglash jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon insonning jamiyatdagi o'rne, ijtimoiy rollari va guruhga mansublik hissi bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy identiklik o'smirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan ushbu bosqichda shaxs o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his etishga intiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy identiklikning shakllanishida oila, maktab, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi [1], [2]. Oila o'smirlarga dastlabki ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor me'yorlarini singdirsa, tengdoshlar guruhi orqali o'smir o'zini qabul qilingan yoki rad etilgan shaxs sifatida his qiladi. Bu esa uning o'ziga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy identiklik ijobiy shakllanganda, o'smirda jamiyatga daxldorlik hissi, mas'uliyat va o'ziga ishonch kuchayadi. Aksincha, guruh tomonidan rad etilish yoki ijtimoiy izolyatsiya o'smirda identiklik inqirozi, past o'z-o'zini baholash va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'smirlik davrida shaxsiy va ijtimoiy identiklik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Shaxsiy va ijtimoiy identiklik o'smirlik davrida o'zaro uzviy aloqada rivojlanadi. Shaxsiy identiklik

o'smirning o'z qobiliyatlari, qadriyatlari va maqsadlarini anglashiga asoslangan bo'lsa, ijtimoiy identiklik uning jamiyatdagi o'rnini belgilaydi. Ushbu ikki jarayon bir-birini to'ldiradi va o'smir shaxsining yaxlit shakllanishiga xizmat qiladi.

O'smirlar ko'pincha turli ijtimoiy rollarni sinab ko'rish orqali o'z identikliklarini aniqlashga harakat qiladilar. Masalan, muayyan do'stlar guruhiga mansublik, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik yoki qiziqishlar asosida shakllangan submadaniyatlar o'smirning ijtimoiy identiklik izlanishining muhim shakllaridan biridir. Bunday izlanishlar muvaffaqiyatli kechganda, shaxsiy barqarorlik va ichki uyg'unlik yuzaga keladi.

Biroq shaxsiy va ijtimoiy identiklik o'rtasidagi nomutanosiblik o'smirlik davrida psixologik qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Masalan, o'smirning ichki qiziqishlari jamiyat kutishlariga mos kelmaganda, ichki ziddiyat va rol chalkashuvi yuzaga keladi. Shu sababli, o'smirlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

"Ijtimoiy muhit o'smir identikligi rivojlanishida hal qiluvchi va transformatsion omil sanaladi. Shaxsning shakllanish jarayoni bevosita oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar davrasi va keng ijtimoiy-madaniy makonning o'zaro ta'siri ostida kechadi.

Xususan, oila ichidagi psixologik iqlim, ota-onaning tarbiyaviy uslubi va o'zaro munosabatlar dinamikasi o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchini hamda barqaror "Men" konsepsiyasini belgilovchi poydevordir. Shu bilan birga, tengdoshlar guruhidagi muloqot o'smir uchun o'ziga xos "ijtimoiy ko'zgu" vazifasini o'tab, uning individual xususiyatlarini jamoaviy normalar bilan qiyoslashiga imkon beradi. Bu davrda ijtimoiy muhit o'smirning qadriyatlar tizimini va kelgusidagi xulq-atvor strategiyalarini modellashtirishda filtr vazifasini o'taydi. Ayniqsa, zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar o'smir identikligiga bevosita ta'sir ko'rsatib, unda yangi ijtimoiy rollarni sinovdan o'tkazish ehtiyojini kuchaytiradi.

O'smir aynan mana shunday ko'p qirrali tashqi muhit bilan muloqot qilish jarayonida o'zlikni anglash inqirozlarini yengib o'tadi va jamiyatdagi o'zining muqim o'rnini belgilaydi." Maktab muhiti o'smirning ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi, ijtimoiy mas'uliyatni his etishi va o'z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun muhim maydon hisoblanadi. O'qituvchilar tomonidan beriladigan ijobiy baho va qo'llab-quvvatlash o'smirning o'zini jamiyatda qadrlil shaxs sifatida his etishiga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy axborot makoni, xususan, ijtimoiy tarmoqlar o'smir identiklik rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual makonda o'smirlar o'zlarini namoyon qilish, e'tirofga erishish va ijtimoiy qabul qilinishga intiladilar. Bu holat ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, salbiy taqqoslashlar va identiklik inqirozini kuchaytiruvchi omillarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Xulosa:

Mazkur tadqiqotda o'smirlik davrida shaxsiy va ijtimoiy identiklikning shakllanishi biologik hamda psixofiziologik omillar uyg'unligida kechadigan murakkab jarayon ekanligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila, ta'lim muassasasi va tengdoshlar bilan o'rnatilgan ijobiy munosabatlar o'smirda o'ziga ishonch hamda ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi asosiy drayverlardir. Aksincha, ichki qadriyatlar va ijtimoiy kutishlar o'rtasidagi nomutanosiblik identiklik inqirozi hamda emotsional beqarorlikka sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, sog'lom identiklikni shakllantirish uchun oila, maktab va jamiyat hamkorligida tizimli psixologik qo'llab-quvvatlovni yo'lga qo'yish lozim.

Bu yondashuv kelajakda ijtimoiy faol, o'zligini anglagan va barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.G'oziyev E.G'. Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi, 2014.
- 2.Karimova, V. M. (2018). Shaxs psixologiyasi. Toshkent, O'zbekiston: Fan va texnologiya.
- 3.Mavlonova, R., & Rahmonqulova, N. (2016). Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent, O'zbekiston: Sharq.
- 4.Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company, 1968.
5. Выготский Л.С. Психология развития человека. Москва: Смысл, 2005.